

**TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMANI SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z
TUPROQLARI SIFAT BAHOSI O'RGANISH****Kamolov Bobir Sultonovich**Toshkent dalat agrar universiteti dotsenti kamilovbobur1964@gmail.com**Ahrorov Adham Asror oqli**Toshkent dalat agrar universiteti talabasi axrorovadham84@gmail.com**Doniyorova Gulsevar Sherali qizi**Toshkent dalat agrar universiteti talabasi alfa40593@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19690286>

Annotatsiya. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini shakllanishi va qayta tiklanishi evolyusiyasi qonuniyatlarini aniqlash, tuproq xossa-xususiyatlarini dehqonchilik ta'sirida o'zgarishini hisobga olgan holda unumdorlik darajasini belgilash orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan ekin turini tanlash, tuproq unumdorligini yaxshilash va oshirish, tuproqlarni sifat jihatdan baholash hamda boshqarishda axborot texnologiyalarni qo'llashga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: voha tuproqlari sifati, bahosi, agrokimyoviy xossalari, unumdorligini saqlash sifat bohosini oshirish.

**ИЗУЧЕНИЕ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОРОШАЕМЫХ ЖИВЫХ СЕРОЗЁМНЫХ
ПОРОД ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация. Проводятся научные исследования, направленные на эффективное использование земельных ресурсов путем определения закономерностей эволюции формирования и восстановления плодородия орошаемых земель, определения уровня плодородия с учетом изменения свойств земель под влиянием земледелия. В связи с этим особое внимание уделяется научным исследованиям по улучшению эколого-мелиоративного состояния стояков, выбору вида культуры, соответствующего климатическим условиям стояков, улучшению и повышению продуктивности стояков, качественной оценке стояков и использованию информационных технологий в управлении.

Ключевые слова: повышение оценки качества, оценки, агрохимических свойств, сохранения плодородия оазисных почв.

Kirish. Toshkent voxasining sug'oriladigan yerlari doimiy ravishda dexqonlikda foydalanib kelishiga qaramasdan Piskent tumanida Angren daryosining IV-V soxil usti terrasasida tarqalgan tuproqlarning irrigatsion eroziya ta'sirida agrokimyoviy xossalari, bilogik faolligi agrofizik fizik-mexanik xossalarining o'zgarishiga va unumdorligini oshirish borasida to'loqonli ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

O'tgan o'n yilliklar davomida biosferaga inson ta'siri sezilarli darajada o'sdi, qishloq xo'jaligi yerlarining salbiy o'zgarishini sezilarli darajada tezlashtirdi. Jiddiy ekologik oqibatlar qishloq xo'jaligining so'nggi tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishiga olib keldi.

Natijada adir tuproqlari sug'orish ta'sirida turli guruhlardagi tuproqlar shakllangan. Adir hududlari relef shakllari turli tumanligidan sug'orish suvlarini er ostiga singishi natijasida vujudga kelgan grunt suvlari ta'sirida ayrim joylarda yangi tuproq paydo bo'lishi jarayoni

kechmoqda. Adir zonasi tuproqlari keyingi 30-40 yil ichida keng o'zlashtirishga tortilgan. Bu hududlarda tuproqlarni xossa va xususiyatlari to'g'risida ilmiy izlanishlar o'tkazilmagan.

Tuproqning hozirgi holatiga solishtiriladigan bo'lsa tuproqning ball boniteti 40 yil ichida dastlabki holatiga tushib qolganligi namoyon bo'lib N.V.Kimberg (1974) o'z ilmiy ishlarida, har bir tuproq tipi (quriq va sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar, kesma tusli qo'ng'ir, qumli cho'l, taqir va taqirli tuproqlar) kesmasiga tayangan holda, Qarshi cho'li tuproq qoplamiga to'la xarakteristika berdi. Shu bilan birga, amalga oshiriladigan meliorativ tadbirlarga asoslanib, Qarshi cho'li tuproqlarini beshta toifaga bo'lib berdi.

Mualliflarning kuzatishicha, bo'z tuproqlar mintaqasiga nisbatan, cho'l mintaqasi sharoitidagi tuproq mikroflorasining rivojlanishiga sug'orishning ijobiy ta'siri ochib berildi.

Barcha xo'jaliklar xaritasi tuzilib, tuproq tiplari, sho'rlanish tiplari, sizot suvlari chuqurligiva minerilizatsiya darajasi hamda tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari belgilab berildi.

Shu bilan birga tuproqni yaxshilash va unumdorligini oshirish maqsadida o'tkazilgan agromeliorativ chora – tadbirlar to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqildi.

1964 yildan e'tiboran tuproq unumdorligini oshirish hamda dexqonchilik madaniyatini ko'tarish, sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun kollektor – zovurlar tizimini vujudga keltirish sohasida ishlar jadallashdi.

Hozirgi kunda tuproq unumdorligini boshqarish va baholash ishlari dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlarida olib borilmoqda. Respublikamiz qadimiy sug'orma dehqonchilik rivojlangan madaniy markazlardan biridir. Sug'orma dehqonchilik daryo havzalarida, tekislik, tog' oldi va tog' osti hududlarida qadimdan rivojlangan. Tog' oldi adirli va tog' osti zonalarida avvalo dehqonchilik sug'orish suvlari o'z kuchi bilan chiqadigan yuqori daryo oqimlaridan boshlangan va keyinchalik daryo o'zani atroflarini quyi qismlariga tomon siljib kelgan.

1 -jadval

Parkent tumanida tarqalgan tuproqning fizikaviy hossalari

	Tuproq nomi	Kesma chuqurligi	Hajm og'irli, g/sm ³	Solishtirma og'irligi, g/sm ³	Umumiy g'ovaklik %
1	K-1	0-36	1,21	2,59	53.2
		36-60	1,26	2,63	50,9
		60-78	1,28	2,93	56,3
		78-93	1,29	2,65	51.3
		93-121	1,33	2,80	52.5
3	K-2	0-36	1,26	2,88	56.25
		36-60	1,28	2,71	52.76
		60-78	1,26	2,93	56.9
		78-93	1,21	2.85	57.5
		93-121	1.18	2.90	59.3

Xulosa qilib aytganda tuproqning umumiy fizik xossalari unda kechadigan barcha jaryonlarga va tuproq tipchalarida turlicha namayon bo'lgan. Ayniqsa tuproq fizik xossalari eroziya jarayonlari ta'sir etishi tadqiqotlar davomida kuzatildi. O'rganilgan tuproqlarda umumiy g'ovaklikning yuqori bo'lishi tuproqda yashovchi mikroorganizmlarning faolligini ta'minlaydi.

Tuproq bonitirovkasi – tuproq sifati va tabiiy unumdorlik darajasiga beriladigan qiyosiy baho bo‘lib, ko‘p jihatdan ekinlar hosildorligi bilan bog‘liq bo‘lgan tuproq xossa va hususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi va natijasi ballarda ifodalanadi. Tuproq bonitirovkasi ishlari qishloq xo‘jalik ekinlari talablaridan kelib chiqib o‘tkaziladi, sug‘orma dehqonchilik sharoitida u asosan paxta va g‘allachilikda keng qo‘llaniladi. Masalan, paxtani talablari hisobga olinib, yerlarni aniqlangan bonitet ballari paxta kompleksidagi boshqa ekinlar etishtiriladigan tuproqlarning baholash uchun ham asos hisoblanadi.

Sug‘oriladigan tuproqlarni sifat jihatdan baholashda uning mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi va tiplari, toshloqligi, gipslashganligi, yeroziya jarayonlari, yuvilganligi, gumus, oziqa elementlari bilan ta‘minlanganligi va boshqa bir qator xossalari e‘tiborga olinadi hamda tuproqlar 100 balli yopiq shkala bo‘yicha baholanadi (amalga oshiriladi).

Tuproqlarni agroishlab chiqarish (kadastr) guruhlariga – yomon, o‘rtachadan past, o‘rtacha, yaxshi va juda yaxshi yerlarga (klasslarga) ajartish, eng avvalo qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini ilmiy asoslangan tarzda yuritish, agrotexnik va meliorativ tadbirlarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Tuproqlarni baholashda quyidagi, ya‘ni eng yaxshi, qulay xossalarga, yuqori mahsuldorlikka (unumdorlikka) ega bo‘lgan sug‘oriladigan tuproqlar 100 ball bilan baholanadi, optimal ko‘rsatkichlardan chekinish holatlari yuz bergan taqdirda bonitet ballarini hisoblashda pasaytiruvchi koeffitsientlar qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun yaroqli sug‘oriladigan yerlarning maxsuldorligi bo‘yicha tuproq unumdorligi potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular sifati bo‘yicha o‘nta klass, beshta kadastr guruhiga birlashtiriladi.

2-jadval

Tuproqning xususiyatlari bo‘yicha bonitirovkalash koeffitsientlari.

Xossalarning ifodalanish darajasi	Sho‘rlanganlik	Yemirilish	Haydov qatlamining Skeletligi		
			Toshlar	Shag‘al va chigir-toshlar	Mayda chigir-toshlar
Ifodalanmagan	1,00	1,00	100	100	100
Kam	0,85	0,95	0,90	0,90	0,95
O‘rtacha	0,60	0,80	0,75	0,80	0,85
Kuchli	0,40	0,70	0,60	0,65	0,70
Juda kuchli	0,30	0,50	0,40	0,45	0,50
Yuvilmali	-	0,90	-	-	-

Tuproq meliorativ holatini yaxshilash uchun tuproq sho‘rini yuvish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bu borada haydalib, yaxshi tekislangan maydonlarda olingan cheklarga suv bostirish yo‘li bilan tuproq sho‘rini yuvish, bu tadbirni o‘tkazishdan oldin barcha mavjud kollektor-zovur tarmoqlarini ishchi holiga keltirish (tozalash), tuproqning sho‘rlanganlik darajasi, tuzlar ximizmi mexanik tarkibi, suv o‘tkazuvchanlik xossalari hisobga olgan holda, sho‘r yuvish me‘yorlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. SHO‘r yuvish ishlarini kuz-qish oylarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Gumus va oziqa moddalari kamaygan yerlarda organik, organomineral va mineral o‘g‘itlarni tabaqalashtirilgan holda tuzilgan kartalar asosida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Bunda har yili ekinlar hosili va boshqa tovar massasi bilan tuproqdan olib chiqib ketiladigan bir qator oziqaelementlarining o'rnini to'ldirishga asosiy e'tibor qaratilishi kerak.

Chunki ekinlar tomonidan tuproqdan olib chiqib ketiladigan moddalar miqdori juda katta ko'rsatgichlarni tashkil etadi. Masalan g'ozadan gektariga 30 sentner paxta hosili etishtirilganda o'rta hisobda 12 tonna biomassa hosil bo'ladi. Bu biomassa tarkibida tuproqdan etmishdan ortiq elementlar olib chiqiladi, buning o'rnini qoplash uchun albatta organik, organomineral va mineral o'g'itlarni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash kerak.

XULOSALAR

Parkent tumanida tarqalgan tuproqlar allyuvial-prolyuvial va lyossimon yotqiziqalarda shakllangan. Ushbu tuproqlar alp davri orogenezida, uchlamchi davrning oxiri – to'rtlamchi davrni boshlarida shakllangan.

Mexanik tarkibiga ko'ra, bu tuproqlar asosan og'ir qumoqli, 0,5-1,0 m, ba'zan ulardan ham yaqin chuqurlikda qum shag'allar yotqizilgan. tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra, 4% og'ir qumoqli, 89% o'rta qumoqli, 7% engil qumoqli, 0,1% qumloqli mexanik tarkibdan iborat ekanligi qayd qilindi

Umuman olganda Amir Temur massivi hamda Parkent massivi tuproqlarining o'rtacha ball boniteti hisoblandi. Bu hisob kitobga ko'ra Amir Temur massivi 56,5 ballni Parkent massivi 65.1 ballni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa tuproqlarning o'rtacha bahosini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son farmoni. Toshkent 2019.
2. Abduraxmonov N.YU. Baxmal tumani lalmi tuproqlarini baholash. Agrar fani: yutuqlari va istiqbollari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferenstiya ma'ruzalarining tezislari. Toshkent, 2002. 340-341 betlar.
3. Burxanova D.U., Urmanova M.N. Toshkent viloyatida tarqalgan sug'oriladigan tipik bo'z va o'tloqi tuproqlarning xossa xususiyatlari. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi № 3 (9/2) 2023 81-84 bet
4. Ermatova M.Q. Sug'oriladigan tuproqlar eritmasining tarkibi va konsentratsiyasini o'simliklar oziqlanishi uchun maqbullashtirish yo'llari. Diss.avtoref. Toshkent 2023 y.
5. Dursunov D.Ch., Xashimova D.P., Xayitmatov O.T., Otajonov U.A., Pilipenko Ye.F., Nasridinova Sh.T., Abdumalikova G. Dasturlash texnologiyasi. – T.: TDIU, 2006. 46-47 b.